



## GAP MARKAZI VA UNING KENGAYTIRUVCHILARI: KESIMLIK VA EGA MUNOSABATI TAHLILI

**Qosimov Dilshod Normurod o'g'li**

*Turon universiteti magistri*

**Annotatsiya.** *Mazkur tadqiqotda kesimlik kategoriyasining gap markazini shakllantirishdagi o'rni hamda eganing sintaktik maqomi masalasi tahlil qilinadi. Xususan, ega gapning mustaqil markaziy bo'lagi emas, balki kesimga bog'liq holda uning grammatik ma'nosini aniqlashtiruvchi kengaytiruvchi birlik sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda eganing mavjudligi kesimning leksik ma'nosi bilan emas, balki kesimlik kategoriyasiga xos shaxs-son ma'nosi bilan belgilanishi ilmiy asosda ko'rsatib beriladi. Shuningdek, ega kesimlik kategoriyasi tarkibidagi shaxs ma'nosini konkretlashtiruvchi vosita sifatida izohlanadi. Natijada, gap markazi va uning kengaytiruvchilari o'rtasidagi munosabatlar yangi nazariy yondashuv asosida talqin qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *kesimlik kategoriyasi, ega, gap markazi, sintaktik qurilish, gap kengaytiruvchisi, shaxs-son kategoriyasi, grammatik ma'no, sintaksis, turkiy tillar, funksional yondashuv.*

**Annotation.** *This study examines the role of the predicative expression category (kesimlik) in forming the core of a sentence and analyzes the syntactic status of the subject. In particular, the subject is interpreted not as an independent central component of the sentence, but as an expanding element that уточняет the grammatical meaning of the predicate. The research demonstrates that the presence of the subject is determined not by the lexical meaning of the predicate, but by the person-number meaning inherent in the predicative expression category. Furthermore, the subject is described as a means of specifying the person meaning contained within this category. As a result, the relationship between the sentence core and its expanders is reconsidered from a new theoretical perspective.*

**Keywords:** *predicative expression category, subject, sentence core, syntactic structure, sentence expander, person-number category, grammatical meaning, syntax, Turkic languages, functional approach.*

Nutqiy kommunikatsiya jarayonida til sathlarining barchasiga oid birliklar harakatga keladi, bu harakatlarning eng oliy muvofiqlashtiruvchisi esa kommunikativ sintaksisdir. Nutqiy muloqotning asosiy birliklari bo'lmish gap va matn pirovard natija o'laroq aynan shu kommunikativ sintaksis qonuniyatlari asosida shakllanadi. Kommunikativ sintaksis hamisha so'zlovchi, tinglovchi va nutq o'rtasidagi aloqalarni hamda bu aloqalardagi o'ziga xosliklarni ham nazarda tutadi. Albatta, bunda semantik-struktur va sistem sintaksis qonun-qoidalarini nazardan soqit qilib bo'lmaydi, chunki



kommunikativ sintaksis aynan ana shu qonun-qoidalarning nutqiy realizatsiyasi jarayonlariga asosiy e'tiborni qaratadi, ana shularni o'rganishni o'zining asosiy vazifasi deb biladi.

O'zbek tili sintaksisi va stilistikasi muammolarining jiddiy tadqiqotchilaridan biri I. Toshaliyev o'rinli ravishda aytib o'tganidek, "lisoniy o'zgarishlarni til va nutq, til tizimi va nutq faoliyati, umumiy va xususiy, barqarorlik va tasodifiylik o'rtasidagi farqlanishlar nuqtai nazaridan ham talqin etish mumkin. Sistem lingvistika va kommunikativ lingvistika o'rtasidagi chegarani belgilashda ham mana shu tamoyillardan kelib chiqiladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, sistem lingvistika va kommunikativ lingvistika lisoniy qo'llanish sohasini o'rganishda bir-birini to'ldiradi."<sup>34</sup>

Gap kesimini shakllantiruvchi vosita kesimlik kategoriyasi bo'lganligi sababli o'zbek nutqidagi gapning tarkibiy qismini shu gap tarkibiga kiruvchi so'zning va kesimlik kategoriyasi shaklining valentligi belgilaydi. Demak, nutqiy gaplardagi ikki hodisani farqlash lozim:

1) gap markazini tashkil etuvchi so'zdagi kesimlik kategoriyasi shakllariga bog'lanuvchi so'z;

2) gapda ishtirok etayotgan ma'lum bir so'zning ma'noviy valentligini to'ldirayotgan so'z.

Bulardan birinchisi gap kengaytiruvchisi bo'lsa, ikkinchisi – so'z kengaytiruvchisi.

Gap kengaytiruvchisi gap tarkibida ma'lum bir bo'lak vazifasida kelayotgan so'zlarning lug'aviy ma'nosiga emas, balki gapning kesimini shakllantirgan morfologik vositaga bog'lanadi. Masalan: Biz bu kitobni kecha o'qidik gapini olaylik. Bu gapda ega (biz), aniqlovchi (bu), hol (kecha) va kesim (o'qidik) ishtirok etgan. Gap markazi (o'qidik) ni lug'aviy ma'noni anglatuvchi (W) va kesimlik qo'shimchalari (Pm) ga ajratamiz: o'qi (W) - dik (Pm). Gapdagi biz (ega) kesimlik kategoriyasi shaklining (-k) qismiga, kecha (hol) esa (-di) qismiga bog'langan. Kitobni so'zi (to'ldiruvchi) kesimning lug'aviy ma'no anglatuvchi qismiga, bu (aniqlovchi) esa kitobni so'ziga bog'lanmoqda.

Demak, gapning kesimi tarkibidagi kesimlik qo'shimchalariga tobelangan kecha (hol) va biz (ega) so'zlari – gap kengaytiruvchilari. Biroq o'qidik kesimining lug'aviy ma'no anglatuvchi qismi bo'lgan o'qi so'zi istalgan boshqa fe'l (yoz, chiz, ol, ber) bilan almashtirilib, [-dik] qismi saqlab qolinsa, biz so'zi ega, kecha so'zi hol vazifasida qolaveradi.

Demak, kesimlik kategoriyasi gapning markazini shakllantiruvchi asosiy vosita bo'lganligi sababli, yuqorida keltirilgan gapdagi ega gapning sintaktik qurilishiga bevosita aloqador qism – gap kengaytiruvchisi deb baholanishi kerak. Eganing

<sup>34</sup> Тошалиев И. Ҳозирги ўзбек тили. Синтаксис. Синтактик ва синтагматик қайта бўлиниш. Парцелляция. –Тошкент: Зарқалам, 2004.-Б. 11.



mavjudligi kesim vazifasida kelgan soʻzning maʼnosi bilan emas, balki kesimlik grammatik shaklining, jumladan, uning tarkibidagi shaxs-son maʼnosi bilan bogʻliq. Koʻrinadiki, ega kesimlik kategoriyasi tarkibiga kiruvchi shaxs maʼnosini oʻzida muayyanlashtiradi.

Darslik va qoʻllanmalarda eganing shu gap tarkibidagi boshqa bir soʻzga ergashib soʻz birikmasi tuza olmasligi (masalan, yuqoridagi gapda biz oʻqidik hosilasi soʻz birikmasini emas, balki gapni berishi) taʼkidlanadi. Xuddi shuningdek, men oʻqituvchiman gapida ham men olmoshi oʻqituvchi soʻzi bilan soʻz kengaytiruvchisi sifatida birikib soʻz birikmasi tuza olmaydi. Gap kengaytiruvchisi sifatida ega gapning kesimlik qoʻshimchalari tarkibidagi shaxs-son, hol esa zamon, modallik, tasdiq-inkor shakllari bilan bogʻlanadi.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, kesimlik kategoriyasi gapning markazini shakllantiruvchi asosiy grammatik vosita hisoblanadi. Ega esa anʼanaviy talqindagi kabi mustaqil markaziy boʻlak emas, balki kesimga bogʻliq holda uning grammatik maʼnosini aniqlashtiruvchi kengaytiruvchi birlik sifatida namoyon boʻladi. Eganing mavjudligi kesimning leksik mazmuniga emas, balki kesimlik kategoriyasi tarkibidagi shaxs-son maʼnosiga bevosita bogʻliq ekanligi aniqlanadi.

Shu jihatdan, ega kesimlik kategoriyasidagi shaxs maʼnosini konkretlashtiruvchi sintaktik vosita sifatida talqin qilinadi. Bu esa gap qurilishida markaz va kengaytiruvchilar oʻrtasidagi munosabatlarni qayta koʻrib chiqishni taqozo etadi. Natijada, kesimlik kategoriyasining yetakchi roli asoslanib, gapning sintaktik tuzilishini izohlashda yangi, yanada mukammal nazariy yondashuv zarurligi namoyon boʻladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Nurmonov. S.Nurmonova. Uyushiq kesim va uyushiq gap haqida. IImiy xabarnoma, ADU, №4 2013-yil; Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. -Т., 1988. -99 б. В-70-75
2. А.Фуломов, М.Асқарова. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Т.: Ўқитувчи, 1987. – 256 б. В-70-71
3. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 60.
4. Менглиев Б.Р. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари: Филол. фанлари номзоди ...дисс.автореф.-Т., 1996.-18 б.
5. Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. -Т., 1988. -99 б.; Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. - Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 60.
6. Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. –Т., 1988. -99 б;



7. Тошалиев И. Ҳозирги ўзбек тили. Синтаксис. Синтактик ва синтагматик қайта бўлиниш. Парцелляция. –Тошкент: Зарқалам, 2004.-Б. 11.
8. Ўзбек тили грамматикаси. II-том. Синтаксис. Ғ.Абдурахмонов ва бошқ. Т.: Фан, 1976. 560 б. В-116-117
9. Ҳ.Усмонова. “Ўзбек тилидаги гап бўлақларининг позицион структураси” Филол.фан. док. дис.. автореф. Т., 2009. 39 б.